| “Риск-ориентированный надзор в банковском секторе узбекистана: актуальные практики и вызовы” .....                                                               | 712 |
| Суюнов Жасур Бозорович                                                                                                                                           |     |
| Рейтинг устойчивости субъектов предпринимательства: некоторые теоретические и практические аспекты .....                                                         | 715 |
| Исроилов Баходир Ибрагимович, Ibragimov Boburshoh Boxodir ugli                                                                                                   |     |



|                                                                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish yo'llari.....                                            | 718 |
| Raxmanov Ilxom Xurramovich                                                                                                          |     |
| O'zbekistonda moliyaviy razvedka xizmati faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....                                 | 725 |
| Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li, G'aniyev Samariddin Murodullo o'g'li                                                          |     |
| Передовые методы сбора данных для точных маркетинговых исследований .....                                                           | 730 |
| Бекназова Комилахон Миркамол кизи                                                                                                   |     |
| Budjet tashkilotlarida ichki auditni tashkil etish va uning uslubiyotini takomillashtirish.....                                     | 733 |
| Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna                                                                    |     |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda logistikaning nazariy va uslubiy asoslari..... | 740 |
| Mirzanova Nozima Maratovna                                                                                                          |     |
| Tijorat banklarining transformatsiyalash jarayonlarini masofaviy bank xizmat turlari orqali rivojlantirish .....                    | 744 |
| Farmanova O'g'iloy Aliqul qizi                                                                                                      |     |
| Budjet daromadlarini shakllantirishning xorij tajribasi .....                                                                       | 748 |
| Saipnazarov Shaylavbek Aktamovich                                                                                                   |     |
| Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar – o'zbekistonni yanada rivojlantirish strategiyasining tarbiyaviy omili.....                            | 753 |
| Gulxayo Samandarova Abdulkarim qizi                                                                                                 |     |
| Potential of vineyard tourism in Cappadocia region .....                                                                            | 761 |
| Xashimova Shaxnoza Shuxrat qizi                                                                                                     |     |
| Aloqa xizmatlarini ko'rsatishning bugungi muammo va yechimlari.....                                                                 | 767 |
| Shirinova Gulnoza Xudoyor qizi                                                                                                      |     |
| Mamlakatlarga xos xatarlarni baholash metodologiyalari tahlili .....                                                                | 771 |
| Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li                                                                                                   |     |
| Tijorat banklarida faktoring operatsiyalariga ta'sir qiluvchi omillarning empirik tahlili .....                                     | 779 |
| Usmonov Farrux Farxodovich                                                                                                          |     |
| A Comprehensive Analysis between Entrepreneurship and Unemployment in Uzbekistan.....                                               | 787 |
| Shomurodov Tokhir Boymurod ugli, Rakhmonov Bekzod Sharibjon ugli, Kuziyeva Gulnoza Rashidovna                                       |     |
| English language competency as a catalyst for promoting sustainable development education in economics programs .....               | 792 |
| Askarova Feruza Abdullaevna                                                                                                         |     |
| O'zbekiston misolida inson kapitali va tadqiqotlar boshqaruvini tadqiq qilish.....                                                  | 798 |
| Abdullayev Baxodir                                                                                                                  |     |
| The role of insurance enterprises in securing global maritime trade.....                                                            | 804 |
| Sohibjamol Abirkulova                                                                                                               |     |
| Fond bozori orqali investitsiya faoliyatini moliyalashtirish yo'llari.....                                                          | 809 |
| Haydarov O'ral Axmadovich                                                                                                           |     |
| Bozor bahosi usullari asosida loyiha tannarxining bir qismi sifatida mehnat xarajatlarini hisoblashning iqtisodiy modeli.....       | 815 |
| Suvonov Bekniyoz Baxtiyor o'g'li                                                                                                    |     |
| Анализ теоретического основы государственного внутреннего финансового аудита Республики Узбекистан.....                             | 821 |
| А.Нурниязов, Б. И. Исроилов                                                                                                         |     |
| O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilmaning ahamiyati.....                                      | 829 |
| Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li, Shomurodov Tohir Boymurod o'g'li, Botirova Hulkan Olimjonovna                                     |     |
| Innovatsion biznesni rivojlantirishning nazariy jihatlari.....                                                                      | 836 |
| M.E.Ostanova                                                                                                                        |     |
| O'zbekiston respublikasi davlat budjeti daromadlarini o'rta muddatli prognozlash.....                                               | 841 |
| Fayzullayev Doston Mahmud o'g'li                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                                                                                                         |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Conceptual Foundations of Applying Public-Private Partnership Mechanisms in the Tourism Sector .....                                                                                                                    | 847 |
| Saidov Utkir Uralboyevich                                                                                                                                                                                               |     |
| Tijorat banklarining likvidligini ta'minlashda xorij tajribasi.....                                                                                                                                                     | 852 |
| Sattorova Nasiba G'anijon qizi                                                                                                                                                                                          |     |
| Sanoat tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini statistik baholash.....                                                                                                                                      | 856 |
| To'rayeva Zilola Turg'unovna                                                                                                                                                                                            |     |
| Tadbirkorlik faoliyatida mijozlar bilan barqaror aloqalarni o'rnatishda CRM strategiyalarining roli.....                                                                                                                | 860 |
| Xalilova Nafisa Komilovna                                                                                                                                                                                               |     |
| Ways to improve the efficiency of banking services in our country .....                                                                                                                                                 | 863 |
| Muminova Masuda Bakhtiyorovna                                                                                                                                                                                           |     |
| Agrar sohada investitsion loyihalarni tutgan o'rni va o'ziga xos jihatlari.....                                                                                                                                         | 867 |
| Utanov Bunyod Kuvandikovich                                                                                                                                                                                             |     |
| Анализ тенденций развития инновационной деятельности свободных экономических зон узбекистана.....                                                                                                                       | 872 |
| Ачилова Ширин Шавкат кизи                                                                                                                                                                                               |     |
| Korxonani boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari .....                                                                                                                                                            | 880 |
| Nazarov Sherzod Abdusattor o'g'li                                                                                                                                                                                       |     |
| Роль акционерных обществ в национальной экономике: анализ вклада крупных акционерных обществ в валовой внутренний продукт Узбекистана, их роль в создании рабочих мест и осуществлении инновационной деятельности ..... | 884 |
| Халеев Зоя Пирниязовна, Эшов Алишер Ахтамович                                                                                                                                                                           |     |
| Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning mohiyati va nazariy asoslari .....                                                                                                             | 888 |
| Ashurov Azizbek Asqaraliyevich                                                                                                                                                                                          |     |
| Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning ahamiyati .....                                                                                                                                    | 892 |
| Xakimova Gulzora Jamshidovna                                                                                                                                                                                            |     |
| Xorijiy mamlakatlar miqyosida elektron xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari va ularning ko'rsatkichlari.....                                                                                                        | 896 |
| Xudoyorova Mehrangiz                                                                                                                                                                                                    |     |
| Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy va moliyaviy resurslardan unumli foydalanish masalalari.....                                                                                                       | 901 |
| Xomidova Kamola G'olib qizi                                                                                                                                                                                             |     |
| "Silk road stations" turizm rastalarini tashkil etish loyihasini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari .....                                                                                            | 907 |
| Suxrob Ramazonovich Bobokalonov                                                                                                                                                                                         |     |

Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari,  
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, fil.f.n.

**Ключевые слова:** туристическая территория, дестинация, туристическая деревня, внутренний туризм, международный въездной туризм, регулирование туристической отрасли.

Buyuk Ipak Yo'li chorrahasida joylashgan Buxoro viloyati bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirish, xizmat ko'rsatish va servis sohasi imkoniyatlarini kengaytirish, respublika miqyosidagi sanoat va xizmat ko'rsatish ulushini barqaror ravishda oshirish borasida o'zining aniq intilishlarini namoyon etib kelmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga taalluqli barcha sohalarida sezilarli darajada o'sish sur'atlari ta'minlandi. Chunonchi, 2023-yilda yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi 105,2 foiz (53,2 trln so'm) ga, sanoat mahsulotlari 106,1 foiz (31,6 trln so'm)ga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari 104 foiz (38,4 trln so'm)ga, xizmatlar 111 foiz (19,3 trln so'm)ga hamda qurilish hajmi 107,5 foiz (9,8 trln so'm)ga o'sdi. Xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2023-yil yakunida 29,4 foizga yetib, jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining 68,1 foizi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida 350 mingdan ortiq fuqarolar bandligi ta'minlangan bo'lib, jami band aholining 43,5 foizini tashkil etmoqda.

907



Buxoro viloyat hokimi Botir Komilovich Zaripovning 2023-yilda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2024-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar to'g'risida xalq deputatlari viloyat Kengashining sessiyasidagi hisobotiga ko'ra, 2024-yilda viloyatga 3,4 mln nafar mahalliy va 1,5 mln nafar xorijiy sayyohlar jalb qilinishi hamda turizm xizmatlari ekporti hajmini 375 mln dollarga yetkazish rejalashtilgan bo'lib, 60 ta yangi joylashtirish vositalari (10 ta mehmonxona, 10 ta xostel va 40 ta oilaviy mehmon uylari) ni tashkil etish va ularning umumiy sonini 604 taga hamda o'rinlar sonini 15,2 mingga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, 2 ta yangi turoperator faoliyati yo'lga qo'yiladi va ularning soni 145 taga hamda 20 ta gid-ekskursavodlarni sertifikatlash orqali ularning soni 325 nafarga yetadi. Albatta ko'zlangan maqsadlar aniq va yuqori sanalib, viloyatning turizm salohiyatidan imkon qadar maksimal darajada foydalanishni nazarda tutadi hamda turizm xizmatlari realizatsiyasini muntazam kengaytirib borishga tegishli imkoniyatlarni izlash va yaratishni taqozo etib, sohani rivojlantirishga oid yangi g'oyalar hamda tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning ta'sirchan mexanizmlarini tadbqiq etishni talab etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turistik potentsialga ega hududlarni jozibador destinatsiyalarga aylantirish muammolarini xorijlik olimlardan S.Formica [1], N.Leiper [2], S.Plog [3], V.Altxoflar [4] ilmiy tadqiq etganlar. O'zbekistonlik olimlardan X.M.Mamatqulov [5], N.S.Ibragimov [6] va B.N.Navro'z-zodalar [7] tomonidan turistik destinatsiyalarni yaratish, ular tomon oqimni hosil qilish, ichki va xalqaro turistlarga yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish, destinatsiyalarni to'g'ri boshqarish, mavsumiy o'zgarishlar fonida yangilanuvchan va dinamik talablarga moslashish, texnologik transformatsiya davriga xos bo'lgan xususiyatlarni inobatga olgan holda xizmatlar taklifiini oshirishga qaratilgan strategik marketing rejalarini ishlab chiqish masalalarini ilmiy-amaliy va metodologik jihatdan tadqiq etishgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Silk Road stations" turizm rastalarini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollarini aniqlashga oid tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tizimli tahlil, konseptual yondashuv, ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, statistik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro viloyati asosan cho'l mintaqasida joylashganligi boisidan, uzoq masofalarda joylashgan dengiz yo'llariga chiqish deyarli imkonsizligi, viloyatga transport vositalari orqali tashrif buyuradigan mahalliy hamda xorijiy sayyohlarning barchasi A-380 hamda M-37 avtomagistralidan o'tishini inobatga olib, mamlakatimizda xalqaro talablarga to'laqonli javob bera oladigan milliy avtomagistral barpo etish, uni dunyoning strategik muhim sanaluvchi chorrahalarga tutashtirish, mahalliy va xalqaro ahamiyatdagi avtomagistral yo'l bo'ylarida har jihatdan qulay joylashuvga ega, zamonaviy infratuzilma obyektlarini shakllantirish hamda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. 2023-yilda yilda respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan umumiy hisobda 1 trln 35 mlrd so'm mablag'lar yo'naltirilib, viloyat hududidagi 1 ming 621 km umumiy foydalanishdagi va ichki xo'jalik avtomobil yo'llari ta'mirlandi [8]. 2024-yil avgust oyi holatida Buxoro viloyatidagi mavjud avtomobil yo'llari va ularning texnik holati ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra (1-jadval), viloyatda davlat ahamiyatiga ega bo'lga avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 1120 km, xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llari uzunligi esa 486 kmni tashkil etmoqda. Mavjud davlat ahamiyatidagi yo'llarning 80,6 foizi yoki 903,5 km qismi, xalqaro ahamiyatdagi yo'llarning esa 68,9 foizi yoki 335 km qismi qoniqarli holatda ekanligi ma'lum bo'ldi.

1-jadval. Buxoro viloyatidagi avtomobil yo'llari va ularning texnik holati [9].

| № | Yo'l raqami | Avtomobil yo'llarining nomi     | Yo'lning uzunligi, km | Shu jumladan, texnik holati |                       |                             |
|---|-------------|---------------------------------|-----------------------|-----------------------------|-----------------------|-----------------------------|
|   |             |                                 |                       | Qoniqarli (km)              | Ta'mirlanayotgan (km) | Ta'mirlanayotgan qismi (km) |
|   |             | Davlat ahamiyatidagi yo'llar    | 1120                  | 903,5                       | 149                   | 67,5                        |
|   |             | Xalqaro ahamiyatdagi yo'llar    | 486                   | 335                         | 113                   | 38                          |
| 1 | M-37        | "Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi" | 155                   | 111                         | 19                    | 25                          |
| 2 | A-380       | "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beyneu"    | 289                   | 195                         | 94                    | -                           |
| 3 | A-380       | a) Buxoro halqa yo'li           | 42                    | 29                          | -                     | 13                          |






Bizning fikrimizcha, avtomobil yo'llari texnik holatining qoniqarlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, viloyatga tashrif buyurgan turistlarning ilk navbatda shakllanadigan yo'l infratuzilmasi borasidagi taassurotlari ijobiy ko'rinish oladi, shuningdek, asosiy turizm destinatsiyasiga yetib borish davomida ko'rsatiladigan xizmatlarning qulayligi va sifat darajasi yuqori bo'lishi turistlarning ijobiy kayfiyatda ko'zlangan sayohat manziliga yetib borishiga, natijada hordiq chiqarish, dam olish, ovqatlanish, xaridlarni amalga oshirish va boshqa shu kabi xizmatlardan kengroq foydalanishlariga turtki beradi. Bu esa sayohatgohlarning eng asosiy maqsadi bo'lgan turizm daromadlari o'sishining bosh omillari sirasiga kiradi,

Biroq, hozirga kelib sohada o'z yechimini kutib talaygina muammolar ham mavjudligini qayd etib o'tish lozim. Jumladan, transport xarajatlarning qo'shni davlatlar bilan solishtirganda karrasiga yuqori ekanligi, avia yo'nalishlarning diversifikatsiya qilinmaganligi shuningdek, yo'l infratuzilmasi, sanitariya-gigiyena holati va axborot-informatsion infratuzilma obyektlari sifatining nisbatan past darajada ekanligi, gid va ekskursovod xizmatlarining talabga nisbatan keskin yetishmovchiligi sayyohlar nazdida O'zbekistonning turistik jozibadorligiga putur yetkazuvchi omillar sirasiga kiradi. Mavjud muammolarni tez va sifatli hal qilish pandemiyadan keyingi davrda O'zbekistonning turizm imkoniyatlarini yanada oshirish, turizm bozorida o'z pozitsiyasini egalash va mustahkamlashga poydevor vazifasini o'tovchi yangi, iqtisodiy samarador loyiha hamda dasturlarini taklif etish juda dolzarb hisoblanadi. Shularga misol qilib, Buxoro viloyati hududidan o'tuvchi A-380 va M-37 avtomagistrali (yo'l bo'yi)da tashkil etilishi ko'zda tutilgan "Silk Road Stations" (SRS) ya'ni turizm rastalari loyihasini keltirishimiz mumkin.

SRS loyihasini amalga oshirishning bir qator tashkiliy yo'nalishlari mavjud bo'lib, ulardan tahlillarimiz natijasida aniqlangan eng asosiy 12 tasi 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Silk Road Stations loyihasining tashkiliy yo'nalishlari<sup>2</sup>.

Fikrimizcha, mazkur yo'nalishlarga menejment faoliyati doirasida alohida yondashilishi natijasida loyiha amaliyotga tatbiq etish muddatlari qisqarib, jarayonlarning sifat jihatdan yuqori darajada amalga oshirilishiga, qolaversa ortiqcha sarf-xarajatlarning iqtisod qilinishiga va bozordagi pozitsiya mustahkamlanishi bilan aloqador maqsadlarning ro'yobga chiqishiga erishiladi.



Tahlillar natijasiga ko'ra Silk Road Stations loyihasini ishlab chiqishda bir qator iqtisodiy yo'nalishlar aniq belgilab olingan bo'lib (2-rasm), bizning fikrimizcha mazkur yo'nalishlar tashkil etilishi ko'zda tutilgan xizmat ko'rsatish majmualari (rastalar nazarda tutilmoqda) iqtisodiy samaradorligini aniq hisob-kitob qilish, kutilmalarni aniqlashtirish, strategik ustuvorliklarni belgilash asnosida sarf-xarajatlarning minimal miqdoriga erishish orqali maksimal daromad olish maqsadlarini ro'yobga chiqarishning asosiy yo'l ko'rsatuvchi "kompasi" vazifasini bajaradi.



2-rasm. Silk Road Stations loyihasining iqtisodiy yo'nalishlari<sup>3</sup>.

"Silk Road Stations" turizm rastalarini tashkil etish loyihasi doirasida alohida konsepsiya ishlab chiqilgan bo'lib, unda deyarli barcha muhim masalalar qamrab olingan. Jumladan, viloyatdagi mavjud magistral yo'llarning umumiy uzunligi 342 kmni tashkil etib, yo'l bo'yida jami 6 ta turizm-savdo rastalarini shakllantirish ko'zda tutilmoqda (3-rasm). Mazkur loyihaning ishga tushirilishi natijasida jami 600 nafar shaxslarning doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishiga erishiladi. Asosiy maqsad sifatida muntazam ish o'rniga ega bo'lmagan, ijtimoiy ahvoli og'ir, temir daftarga kiritilgan oila vakillarini munosib va daromadli ish bilan ta'minlash orqali jamiyatimizga foyda keltirishdir. Hisob-kitoblarimizga qaraganda har bir loyihaning jami qiymati 20 milliard so'mni tashkil etib, talab etiladigan yer maydon hajmi 3-5 gektar bo'lishi nazarda tutilgan va eng asosiysi unumdor yerlarni band qilishni istisno etib, mutlaqo unumsiz, sho'rlanishi yuqori, yoki nisbatan unumsiz yer maydonlarini tanlab olish hisobiga qishloq xo'jaligi manfaatlariga zarar yetkazmaslik hamda mavjud bo'sh turgan yer maydonlaridan samarali foydalanish inobatga olingan.

1-turizm rastasi Turkmaniston-Buxoro yo'nalishida M-37 yo'li yoqasida, Jondor tumani hududida, 2-turizm rastasi Buxoro-Kogon yo'nalishida A-380 yo'li yoqasida, Kogon tumani hududida, 3-turizm rastasi Buxoro-Xorazm yo'nalishida A-380 yo'li yoqasida Romitan tumani hududida, 4-turizm rastasi M-37 yo'li yoqasida Buxoro tumani hududida, 5-turizm rastasi M-37 yo'li yoqasida Vobeknt tumani hududida, 6-turizm rastasi Buxoro-Navoiy yo'nalishida M-37 yo'li yoqasida G'ijduvon tumani hududida bunyod etilishi ko'zda tutilgan.

3 Muallif ishlanmasi



3-rasm. Silk Road Stations turizm rastalarini tashkil etish loyihasi<sup>4</sup>.

Loyihaning dolzarbligi birinchidan, so'nggi yillarda viloyatimizga tashriflarning katta ulushi M-37 hamda A-380 avtomobil yo'nalishi orqali amalga oshirilayotganligi bo'lsa, ikkinchidan mazkur yo'llarda mashina qatnovi oqimlari sezilarli darajada oshishi va respublika miqyosida avtomobillar miqdorining ko'payib borayotganligi bilan izohlanadi.

Xususan, Statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan avtomobillar soni 4 mln 20 ming 744 tani tashkil etib, Buxoro viloyatida bu ko'rsatkich 241 855 tani tashkil etgan (2-jadval). Respublikada mavjud ko'rsatkichlar 2022-yil avvaligiga nisbatan 383 ming 625 taga yoki 10,5 foizga, 2022-yilga nisbatan 23 foizga oshgan. 2023-yilning 1-yanvar holatida ushbu ko'rsatkich 3 mln 637 ming 119 tani tashkil etgani e'tiborlidir. Aholiga tegishli bo'lgan jami avtotransport vositalari ularning turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: yengil avtomobillar – 3 759 045 ta (2023-yilda 3 396 520 ta, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 362 ming 525 taga yoki 10,7 foizga ko'paygan, jami avtomobillarining 93 foizi); yuk avtomobillari – 240 917 ta (219 628 ta); avtobuslar – 6 297 ta (6666 ta); mikroavtobuslar – 9 102 ta (8961 ta); maxsus transportlar – 5 383 ta (5344 ta).

2-jadval. Hududlar kesimida avtomobillar soni (2024-yil) [10].

| Hudud                | Yengi avtomobillar soni | Hudud                | Yengi avtomobillar soni |
|----------------------|-------------------------|----------------------|-------------------------|
| Qoraqalpog'iston R.  | 161 926                 | Samarqand viloyati   | 417 165                 |
| Andijon viloyati     | 271 885                 | Surxondaryo viloyati | 233 675                 |
| Buxoro viloyati      | 241 855                 | Sirdaryo viloyati    | 75 116                  |
| Jizzax viloyati      | 109 657                 | Toshkent viloyati    | 414 645                 |
| Qashqadaryo viloyati | 297 305                 | Farg'ona viloyati    | 354 858                 |
| Navoiy viloyati      | 109 274                 | Xorazm viloyati      | 226 721                 |
| Namangan viloyati    | 247 032                 | Toshkent shahri      | 597 931                 |





Taklif etilayotgan namunaviy loyihaga ko'ra (4-rasm) turizm rastalari qurilishida atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilishi uchun zaruriy barcha texnologiyalar bilan jihozlanishi, yashil hududlar bunyod etilishi va landshaft dizayniga alohida urg'u berilishi rejalashtirilgan.



4-rasm. Silk Road Stations turizm rastalarini tashkil etish loyihasi<sup>5</sup>.

Buxoro tumani Buxoro shahar, Kogon, Vobkent, Romitan, Qorovulbozor, Olot, Jondor tumanlari hamda Navoiy viloyati bilan chegaradosh bo'lib, tuman hududidagi M-37, A-380, A-380a xalqaro yo'llaridan kuniga 20 ming transport vositalari o'tadi va yo'l bo'yi infratuzilma imkoniyatlari juda yuqori sanaladi [11]. Demak, yil davomida o'rta hisobda 7 milliondan ortiq transport vositalari asosiy yo'nalishlarda qatnaydi va ularga yuqori sifatli xizmat turlarini ko'rsatish imkoniyatlari mavjud sanalib, talab ham shunga mos ravishda o'ta yuqoridir.

Yuqoridagi raqamlarga tayangan holda mazkur yo'nalishda tashkil etiladigan turizm rastalaridagi taklif etiladigan turli xizmatlardan potensial foydalanuvchilarning miqdori hamda daromad hajmining prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi (3-jadval). Natijalarga ko'ra, eng past darajadagi kutilmalar holatida yillik daromad hajmi 730 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, eng optimistik prognoz ko'rsatkichlari 18 250 000 AQSh dollar natijani taqdim etdi. Potensial iste'molchilarning xarajatlari o'rtaacha 10-50 AQSh dollari miqdorida deb baholandi.

3-jadval. Buxoro tumani M-37, A-380, A-380a yo'l yoqasidagi turizm rastalarida xizmat ko'rsatilishi va daromdlarning prognoz ko'rsatkichlari.

| Kunlik mashina qatnovi   | Yillik Mashina qatnovi | 1% lik qamrov                        | 2% lik qamrov | 3% lik qamrov | 4% lik qamrov | 5% lik qamrov |
|--------------------------|------------------------|--------------------------------------|---------------|---------------|---------------|---------------|
| 20 000                   | 7 300 000              | 73 000                               | 146 000       | 219 000       | 292 000       | 365 000       |
| O'rtacha xarajat miqdori |                        | Daromadlar prognozi (AQSh dollarida) |               |               |               |               |
| 10 \$                    |                        | 730 000                              | 1 460 000     | 2 190 000     | 2 920 000     | 3 650 000     |
| 15 \$                    |                        | 1 095 000                            | 2 190 000     | 3 285 000     | 4 380 000     | 5 475 000     |
| 20 \$                    |                        | 1 460 000                            | 2 920 000     | 4 380 000     | 5 840 000     | 7 300 000     |

5 Muallif ishlanmasi




|       |           |           |            |            |            |
|-------|-----------|-----------|------------|------------|------------|
| 25 \$ | 1 825 000 | 3 650 000 | 5 475 000  | 7 300 000  | 9 125 000  |
| 30 \$ | 2 190 000 | 4 380 000 | 6 570 000  | 8 760 000  | 10 950 000 |
| 35 \$ | 2 555 000 | 5 110 000 | 7 665 000  | 10 220 000 | 12 775 000 |
| 40 \$ | 2 920 000 | 5 840 000 | 8 760 000  | 11 680 000 | 14 600 000 |
| 45 \$ | 3 285 000 | 6 570 000 | 9 855 000  | 13 140 000 | 16 425 000 |
| 50 \$ | 3 650 000 | 7 300 000 | 10 950 000 | 14 600 000 | 18 250 000 |

Kogon shahri Buxoro shahar, Kogon va Qorovulbozor tumanlari bilan chegaradosh, shahar hududidagi A-380 xalqaro yo'lidan kuniga 4,5 ming transport o'tadi. Vobkent tumani esa Navoiy viloyati, Peshku, Romitan, Buxoro va Shofirkon tumanlari bilan chegaradosh, tuman hududidagi M-37 xalqaro yo'lidan kuniga 10 ming transport o'tadi. G'ijduvon tumani Navoiy viloyati, Vobkent, Shofirkon tumanlari bilan chegaradosh, tuman hududidagi M-37 xalqaro yo'lidan kuniga 10 ming transport o'tadi [11].

Demak, har ikki tuman yonalishlaridagi transport oqimi deyarli bir xil ekanligini inobatga olib, yuqoridagi prognozlar mazkur yo'nalishga moslashtirilgan holda hisoblab chiqilganida, eng past darajadagi kutilmalar ko'rsatkichi yiliga o'rta hisobda 365 000 AQSh dollari, optimistik ko'rsatkichlar 9 125 000 AQSh dollarini tashkil etdi.

Bizning fikrimizcha, Silk Road Stations rastalarini shakllantirish va rivojlantirishga bir qator omillar o'z ta'sirini o'tkazadi hamda ularning klassifikatsiyasi 5-rasmda keltirilgan. Demak, ushbu omillarni ijtimoiy-demografik, tashkiliy-siyosiy, iqtisodiy, iqlim va atrof muhit, texnologik singarilarga ajratib o'tishimiz mumkin.



5-rasm. Silk Road Stations rastalarini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir o'tkazuvchi omillar klassifikatsiyasi<sup>6</sup>



“Silk Road Stations” turizm rastalarining har birida xizmat ko'rsatish nuqtalari miqdori 32 ta bo'lishi rejalashtirilgan bo'lib, ularning turlari va tavsifi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. “Silk Road Stations” (innovatsion Karvonsaroy rastasi) dagi xizmat ko'rsatish nuqtalari tarkibi.

| №  | Xizmat ko'rsatish turlari   | Tavsifi                                              | №  | Xizmat ko'rsatish turlari       | Tavsifi                                        |
|----|-----------------------------|------------------------------------------------------|----|---------------------------------|------------------------------------------------|
| 1  | Oriental Spices station     | Sharq ziravorlari shaxobchasi                        | 17 | Phone & Car Accessories station | Telefon va avtomobil aksessuarlari shaxobchasi |
| 2  | Exchange money station      | Valyuta almashtirish shaxobchasi                     | 18 | National foods station          | Milliy oziq-ovqat taomlar shaxobchasi          |
| 3  | Uzbek somsas station        | O'zbek somsa ovqatlanish shaxobchasi                 | 19 | Beer Bar station                | Pivo bar                                       |
| 4  | Dried fruits station        | Quritilgan mevalar shaxobchasi                       | 20 | Vitamin station                 | Vitaminlar do'koni                             |
| 5  | Local Souvenirs station     | Mahalliy suvenirlar shaxobchasi                      | 21 | Bread products station          | Non mahsulotlari rastasi                       |
| 6  | Local Sweets station        | Mahalliy gular do'koni                               | 22 | Fresh fruits station            | Yangi uzilgan mevalar do'koni                  |
| 7  | Camping car station         | Mashinalar hududi                                    | 23 | Electrocar charging station     | Elektromobillarni quvvatlash stansiyasi        |
| 8  | Pic-nic area station        | Piknik hududi                                        | 24 | Garbage station                 | Chiqindi tashlash maxsus qutilari              |
| 9  | Seasonal vegetables station | Mavsumiy sabzavotlar shaxobchasi                     | 25 | Seasonal fruits station         | Mavsumiy mevalar savdo rastasi                 |
| 10 | Medical Stationery station  | Statsionar tibbiyot shaxobchasi                      | 26 | Car wash station                | Mashinalarni yuvish shaxobchasi                |
| 11 | Auto service station        | Avtomobillarga servis xizmati ko'rsatish shaxobchasi | 27 | Information center station      | Ma'lumot markazlari                            |
| 12 | Chicken food station        | Tovuqli taomlar ovqatlanish shaxobchasi              | 28 | WC stopping station             | Sanitariya-gigiyena xonalari                   |
| 13 | Praying room station        | Ibodat qilish xonasi                                 | 29 | Shashlik shop station           | Kabob tayyorlash shaxobchasi                   |
| 14 | Coffee shop station         | Qahvaxona                                            | 30 | Blacksmith shop station         | Temirchilik rastasi                            |
| 15 | Playing yard station        | O'yingoh maydonchasi                                 | 31 | Parking station                 | Avtoturargohlar                                |
| 16 | Motel station               | Motel                                                | 32 | Work out station                | Mashg'ulot maydonchasi                         |

Loyiha doirasida quyidagi imtiyozlar va qulayliklar taqdim etilishi ko'zda tutilmoqda:

- mahalliy tashabbuskorlar, yoshlar hamda temir daftardagi shaxslarni jalb etish;
- loyiha obyektlari barcha muhandislik kommunikatsiyalariga ulanishi ta'minlanadi;
- har bir obyekt Yandex, Google, Maps.me kabi xalqaro navigatsiya xaritalariga kiritiladi;
- loyiha tashabbuskorlariga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Kutilayotgan umumiy natijalar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, yillik daromad hajmi ko'rsatiladigan barcha xizmat va servis turlarini inobatga olgan holda 50 million AQSH dollariga yetishi, bunyod etiladigan yangi infrazuzilma obyektlari soni 192 tani, xizmat ko'rsatiladigan yo'lovchilar, turistlar va haydovchilarning jami miqdori 5 milliondan ortishi reja qilingan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

“Silk Road Stations” turizm rastalarini tashkil etish loyihasini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlarini ishlab chiqish tadqiqotlar natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:





1. O'zbekiston Respublikasining geografik joylashuvi va dengiz yo'llaridan uzoqda joylashganligi hamda yo'l infratuzilmalarining mamlakat iqtisodiyoti rivoji uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi, xalqaro ahamiyatdagi yo'llar bo'yidagi xizmatlarning zamonaviy talablarga javob bermasligi, biroq, transport va yo'lovchi hajmining yildan-yilga o'sib borayotganligi Buxoro viloyatida turizm sohasida kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni hal etishni, investitsiyalarni jalb etgan holda ham zamonaviy, ham milliy-innovatsion "Silk Road Stations" (Karvonsaroy rastalari)da xizmat ko'rsatish nuqtalarini barpo qilishni talab etadi.

2. Loyiha amalga oshirilishi natijasida yo'l bo'yida turli dehqonchilik mahsulotlarini pala-partish, sanitariya-gigiyena normalariga amal qilmagan holda yoyib savdo qilinishiga barham berilib, hudud aholisining yetishtirgan, ishlab chiqargan mahsulotlarini ayni shu nuqtalardagi sotuvi yo'lga qo'yiladi.

3. Xalqaro ahamiyatga ega magistral yo'llarimiz bo'yida qatnov-trafik xavfsizligi ta'minlanadi. Aholida yo'lovchilik madaniyati shakllantirilishiga erishilib, chiqindilarni mashina derazasidan belgilanmagan joylarga tashlash kabi nomaqbul holatlar kamayishiga zamin yaratilib, maxsus belgilangan joylardagina chiqindi tashlash, ma'lum bir ehtiyojlar uchun faqatgina maxsus joylarda to'xtash mumkin ekanligiga taalluqli transport-yo'lovchilik madaniyati asta-sekin shaklanib boradi.

4. Hudud aholisining kundalik ehtiyojidan ortiqcha yetishtirgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini logistika xarajatlari eng yaqin savdo nuqtasida realizatsiya qilinishi va bu orqali, birinchidan, yo'lovchilar arzon va sifatli mahsulotlar bilan taminlanadi; ikkinchidan, ayollar, yoshlar va temir daftarlaridagi fuqarolarning bandligini taminlash hamda ularning kundalik yangilanib borayotgan talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib, yangi milliy-mahalliy qo'l mehnati mahsulotlarini ishlab chiqarishga zamin yaratiladi.

5. Turizm rastalarning o'ziga xos arxitekturasini va dizayni ishlab chiqilib, mahalla darvozasiga o'xshash bo'lgan, milliy darvozalari barpo etilib, an'anaviy shaklda qad rostlagan rastalarda mahalliy aholining qo'l mehnati mahsuli bo'lgan buyumlar savdosi yo'lga qo'yiladi.

6. Ushbu loyiha sayyohlar uchun barcha qulayliklarga ega bir hudud sifatida, qadimiy Ipak Yo'li o'tgan nuqtalarda bunyod etilib, turistlar zamonaviy Ipak Yo'li yo'nalishi bo'ylab syohatni amalga oshirayotganliklari his etib turadilar. Har bir jarayon animatsion namoyishlar orqali olib borilib, dastlab Buxoroda, so'ngra esa Samarqand, Toshkent, Xiva shaharlarida ham, aynan hududlar salohiyati va turistik resurslaridan kelib chiqqan holda xuddi shu tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekistonda sayyohlik sohasida innovatsiyatlarni joriy etib borish va raqamlashtirishni amalga oshirish orqali sohada tub o'zgartirishlarni amalga oshirish zarurati mavjud hisoblanib, to'liq o'zlashtirilgan imkoniyatlardan biri sifatida endilikda shiddat bilan rivojlanib borayotgan Buyuk Ipak Yo'lida yangi turizm destinatsiyalarini shakllantirish alohida dolzarblik kasb etib bormoqda.

Turizmni rivojlantirishning jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, mazkur industriyani yuqori daromadli sohaga aylantirish uchun davlat va xususiy sektordagi barcha ishtirokchilarning sa'y-harakatlarini birlashtirish va mustahkamlash zarurati mavjud. Ushbu jarayonlarning ro'yobga chiqarilishi qadimda Ipak Yo'li o'tgan turistik hududlarning jozibadorligini yanada oshirish, milliy va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan destinatsiyalar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali amalga oshadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Formica S. Destination attractiveness as a function of supply and demand interaction. – Virginia Polytechnic Institute and State University, 2000.
2. Leiper, Neil. The framework of tourism: towards a definition of tourism, tourist, and the tourist industry // Annals of Tourism Research. – 1973. – № 6(4). – Pp. 390–407.
3. Plog, S.C. Why destination areas rise and fall in popularity // The Cornell Hotel and Restaurant Administration Quarterly. – 1973. – № 14. – Pp. 55–58.
4. Althof W. Incoming-Tourismus. Muenchen; Wien; Oldenbourg, 1996.
5. Маматкулов Х.М. Хизмат курсатиш сохасига оид атамалар ва иборалар изоҳли луғати. –Т.: "Iqtisod-Moliya" 2010. – 398 б.
6. N.S.Ibragimov. Destinatsion menejment: davlat miqyosida turizmni bozor usulida boshqarish san'ati
7. Навруз-зода Б.Н., Ибрагимов Н.С., Навруз-зода З.Б., Навруз-зода Ш.Б. Туристический туризм в Бухоро. Монография. Бухоро: "Садриддин Салим Бухорий" Дурдона нашриёти, 2017, – 156 б.
8. Buxoro viloyat hokimi Botir Komilovich Zaripovning 2023-yilda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2024-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar to'g'risida xalq deputatlari viloyat Kengashining sessiyasidagi hisoboti.
9. Buxoro viloyatidagi avtomobil yo'llari va ularning texnik holatini ko'rsatuvchi ochiq elektron ma'lumoti. <https://uzavtoyul.uz/open-data/open-electronic-map-showing-state-of-roads/avtomobil-yollarining-holatini-korsatuvchi-ochiq-e>
10. <https://stat.uz/uz/>
11. <https://asr.gov.uz/wp-content/uploads/2024/06/buxoro-viloyati-swot-tahlili.pdf> Strategik islohotlar agentligi tomonidan Buxoro viloyati SWOT-tahlili.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2024. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

